

Ernest Hemingueyning “Alvido Qurol!” Romanining O‘Ziga Xos Uslubi

Shaxnoza Ibragimova¹

Annotatsiya: Bu maqola Amerikalik taniqli yozuvchi Ernest Hemingueyning o‘ziga xos uslubi va Alvido Qurol!” romani va uning tarjimasini haqida bayon qiladi. Unda yozuvchining qanday davrda yashagani va bu uning faoliyatida asarlari orqali qanday ta’sir ko‘rsatgani keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, tarjima, yozuv uslubi, yo‘qotilgan avlod, Ernest Heminguey ijodi.

Ernest Heminguey XX asrning amerikalik modernist yozuvchilarining eng buyuklariga tegishli ekanligi butun dunyoga ayondir. Uning adabiy merosi ham amerikalik, ham xorijiy tanqidchilar tomonidan keng tadqiq va tanqidga uchragan. Heminguey nasri dunyoning barcha tillariga tarjima qilingan. Shunga qaramay, olimlar hali ham uning uslubining, ayniqsa uning dastlabki asarlarining uslubining ahamiyati haqida bahslashmoqda. Ba’zi tilshunoslar va tanqidchilar uning qissalari uslubini juda oddiy deb bilishsa, boshqalari asarlarida qo‘llanilgan nutq figuralari va boshqa til vositalarining ko‘p qirrali xarakterini ta’kidlashadi. Binobarin, muallifning o‘ziga xos yozuv uslubi tahlili hech qachon yangilik va jozibadorligini yo‘qotmaydi.

Yozuvchi ijodi davr bilan, o‘sha davrning ma’naviy muammolari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Ernest Heminguey (Ernest Hemingway, 1899–1961) ijodida ushbu bog‘liqlik to‘g‘ridan to‘g‘ri namoyon bo‘lgan yozuvchi ijodini, haqiqiy inson biografiyasidan ajratib bo‘lmaydi. Garchi ushbu biografiya kitobxon ko‘z o‘ngida badiiy jihatdan qayta anglangan va san’atkorona o‘zgartirilgan bo‘lsa ham. Heminguey o‘z hayotining oddiy solnomachisi yoki tarixnavisi emasdi. U yaxshi bilgan, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, boshidan kechirgan voqealar haqida yozgan. Shaxsiy hayot tajribasi esa u qurayotgan ijod qasrining poydevori bo‘lib xizmat qilgan edi, xolos [10].

Hemingueyning o‘zi ushbu tamoyilni quyidagicha ta’riflaydi: “Roman yoki hikoyani yozish – bu yaxshi bilganing asosida badiiy to‘qima yaratish demakdir. Haqiqatda qanday bo‘lishini eslashga harakat qilganingdan ko‘ra, badiiy to‘qima yaxshi chiqqanda, haqiqatga yaqinroq bo‘ladi” [10].

Ernest Heminguey yozuvchi sifatida adabiy sahnada umidsizlik davrida paydo bo‘ldi. Bu urushlar va maishiy zo‘ravonlik tufayli yuzaga kelgan keskinlik davri edi, Barqarorlik dunyosi Heminguey uchun emas edi. Birinchi jahon urushi, Turk urushi, Ispaniya fuqarolar urushi va Ikkinchi jahon urushi unga umr bo‘yi ta’sir qildi. Ernest Heminguey ushbu urushlarning aksariyatida qatnashgan yoki guvohi bo‘lgan, shu sababli bu davrda yozuvchi urushlardan orttirgan tajribasi asarlari uchun o‘ziga xos manba bo‘lib shakllandi.

Hemingueyning fikricha, urush tajribasi yozuvchiga katta sarguzashtni taqdim etadi. Uning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki unga adabiy haqiqatni taqdim etishga imkon berdi.

1929-yilda “Alvido qurol!” romani nashr etildi va u darhol Hemingueyning eng o‘ziga xos asari sifatida talqin etildi. Roman shiddatli urush davridagi sevgi-muhabbat haqida hikoya qiladi.

Alvido, qurol! (inglizcha: A Farewell to Arms) - Ernest Hemingueyning 1929-yilda nashr etilgan romani. Kitob Birinchi jahon urushi davridagi sevgi haqida hikoya qiladi. Roman asosan avtobiografikdir – Heminguey Italiya frontida xizmat qilgan, jangda yaralangan va Milan kasalxonasida yotgan, u yerda hamshiraga ko‘ngil qo‘ygan. Asar voqealari ham shu hodisalarni o‘z

¹ Samarqand davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti



ichiga oladi. Amerikalik arxitektor Frederik Genri Italiyada Birinchi jahon urushida ko'ngilli sifatida qatnashadi [9, 78].

U rassom sifatida urushning haqiqiy tavsifini shunday ko'rsatish bilan kifoyalanmadi, balki urushda qatnashganlarga urushning ta'sirini ham ko'rsatdi. Shaxsiy tajribalari bilan Heminguey urushning jismoniy va adabiy tarixini ham yaratishga harakat qildi. Shundan bo'lsa kerak ushbu davr uning ijodida ko'proq "yo'qotilgan avlod" (Lost generation) iborasi orqali bot takrorlanadi. Maksvell Geysmerga ko'ra: «Ehtimol, boshqa hech bir zamonaviy yozuvchi bizga urushning himoyasiz inson temperamentiga ta'siri haqidagi bunchalik yorqin tadqiqotlar keltirmagandir.»

Ernest Hemingueyning "Alvido qurol" romani shafqatsiz va mantiqsiz urushga qarshi yozilgan otashin asardir. Asarda amerikalik arxitektor Frederik Genri Italiyada Birinchi jahon urushida ko'ngilli sifatida qatnashadi. U leytenant unvoni bilan sanitariya bo'limining transport bo'limi komandiri bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda Frederik kasalxona hamshirasi ingliz Ketrin Barkli bilan uchrashadi va ular bir-biriga ko'ngil qo'yishadi. Ittifoqchi qo'shinlarning bir qator mag'lubiyatlari va chekinishidan ko'p o'tmay, Frederik o'zining amerikacha lahchasi tufayli Italiya dala jandarmeriyasi tomonidan josuslikda ayblovlar qurboni bo'lmaslik uchun qochib ketishga majbur bo'ladi. Ketrin bilan birgalikda u urushga neytral Shveysariyaga qochib ketadi, bu yerda ular dunyoning shafqatsizligidan va bema'ni qotilliklardan najot topganga o'xshaydi. Ammo ko'rinib turgan baxt qisqa muddatli bo'lib chiqadi va Ketrin Shveysariya kasalxonasida tug'riq paytida vafot etadi.

Ernest Heminguey uslubining asosiy xususiyatlarini umumlashtiradigan bo'lsa unda qisqa hikoyalar va romanlar aniq ajralib turadi va bu birinchi navbatda o'ziga xos kompozitsiya va hikoyalar qismlari orasidagi g'ayrioddiy uyg'unlik kabi bir nechta asosiy xususiyatlarni eslatib o'tishga arziydi. Grammatik xususiyatlarga asosan qisqa, ko'pincha fojiali avj nuqtasi bilan tugaydigan syujetning keskinlashishiga hissa qo'shadigan oddiy jumlar shular qatoridandir.

Bu roman dunyo bo'ylab ko'plab mamlakatlarda shuhrat qozondi. Xususan, 20-asrning boshidan boshlab turli sohalarda g'arbiy Yevropa tillaridagi ko'plab o'zbek tilda tarjima qilingan asarlar paydo bo'ldi. Ernest Hemingueyning «Alvido qurol!» romani tarjima qilingan asarlar ichida o'zbek kitobxonlarining sevimli asariga aylandi. "Alvido, qurol!" romani taniqli yozuvchi, tanqidchi, filologiya fanlari nomzodi Ibroxim G'ofurov tomonidan vosita til orqali, ya'ni rus tili, orqali o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, 1986 yilda "Yosh gvardiya" nashriyoti tomonidan bosib chiqarilgan. Asarni tarjima qilish jarayonida tarjimon metonimiya, metafora, sinekdoxa, epitetlardan badiiy vositalardan mohirona foydalangan.

Asar juda qiziq, til ham ravon, stilistik mahoratga boy, unda birinchi navbatda asl o'zbek tillarining qudratining ifodasini ko'rish mumkin, shuningdek, yozuvchining tilga bo'lgan shaxsiy munosabatini his qilishimiz mumkin.

Heminguey qisqa va aniq jumladan foydalanib, ortiqcha so'zlardan qochadi. Uning uslubi iqtisodiy tilda yozish deb ataladi, ya'ni ko'p ma'noni oz so'zlarda ifodalashga qaratilgan. Bu uslub, voqealar va his-tuyg'ularni bevosita va realistik tarzda tasvirlash imkonini beradi. Hemingueyning asarlarida dialoglar katta ahamiyatga ega. «Alvido, qurol!» romanida ham dialoglar orqali personajlarning xarakterlari, his-tuyg'ulari va o'zaro munosabatlari ochib beriladi. Dialoglar sodda va tabiiy, ular orqali hikoya rivoji va mazmuni boyitiladi.

Heminguey o'zining «Iceberg Theory» (Ayberg nazariyasi) deb ataladigan uslubiga amal qiladi, ya'ni hikoyada faqatgina yuzasidagi qismini ochib beradi, asosiy ma'no esa ostida yashirin bo'ladi. «Alvido, qurol!» romanida ham ko'p narsalar bevosita aytilmaydi, balki ularni o'quvchi o'zi anglab olishi kerak bo'ladi.

Misol: Roman asosiy qahramonining o'z hayoti haqida ko'proq ma'lumot bermaslik bilan boshlanadi, ammo uning ichki dunyosi va o'zining o'rniga keltirilgan voqealar orqali ma'nosi anglash mumkin bo'ladi.

Heminguey personajlarining his-tuyg'ularini bevosita tasvirlashdan ko'ra, voqealar va harakatlar orqali namoyish etadi. Uning personajlari ko'pincha o'z his-tuyg'ularini ochiqchasiga ifoda etmaydi, bu esa



ularning ichki dunyosini yanada murakkab va qiziqarli qiladi. «Alvido, qurol!» romanida urush va muhabbat mavzulari markaziy o‘rinni egallaydi. Heminguey bu ikki mavzuni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib, ularning inson hayotidagi o‘rnini va ahamiyatini chuqur o‘rganadi.

Hemingueyning «Alvido, qurol!» romani ushbu o‘ziga xos uslubi orqali adabiyotda o‘ziga xos o‘rin egallagan. Uning minimalistik uslubi, kuchli dialoglari va realizmi romanni unutilmas va ta’sirli qiladi.

Ernest Hemingueyning «Alvido qurol!» romani ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimasi o‘zbek kitobxoniga ingliz odamlarining ma’lum bir davr (urush davri) odati, turmush tarzi, ruhi, madaniyati, mentaliteti haqidagi g‘oyasini yaratishda yordamchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atkins, John. *The Art of Ernest Hemingway: His Work and Personality*. London: Springa. Books, 1952.
2. Baker C. *Hemingway: The Writer as Artist*. 4th ed. Princeton: Princeton University Press; 1972.
3. Hemingway E. *A Farewell to Arms* [Internet]. Available from: <https://www.example.com/a-farewell-to-arms>. Accessed 19 June 2024.
4. Hemingway E. *A Farewell to Arms*. Charles Scribner’s Sons. 1971.
5. Mellow J. *Hemingway: A Life Without Consequences*. Boston: Houghton Mifflin; 1992.
6. Meyers J. *Hemingway: A Biography*. London: Macmillan; 1985.
7. Oliver C. *Ernest Hemingway A to Z: The Essential Reference to the Life and Work*. New York: Checkmark Books; 1999.
8. Reynolds M. *Hemingway: The 1930s*. New York: W.W. Norton & Company; 1997.
9. Saminjonova S.N. ERNEST HEMINGUEY ASARLARI VA ULARDA IFODALANGAN JONLI URUSH TALQINI. // Ilm-fan va innovatsiyalar ilmiy-amaliy konfrensiyasi. 9 iyun 2023 y.; 1(12): 78–9. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8020008>
10. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/muhammadjon-xolbekov-xx-asr-modern-adabiyoti-manzaralari-05.html>

